



XALQ DEPUTATLARI NUROBOD TUMAN KENGASHINING QARORI

141100, Nurobod tumani, Mustaqillik ko‘chasi, 2-uy, Tel: (66) 633-16-34, (66) 633-18-66, e-mail: nurobod.t@exat.uz

2022 - yil 21 - oktabr

VI-60-157-7-99-K/22

Nurobod tuman hokimligi

Tumanda 2022-yil 9 oyi davomida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar va bajarilgan ishlar yuzasidan tuman ishchi guruhining hisoboti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi “Mahalliy budget mablag‘lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta’minalash to‘g‘risida”gi KQ-213-IV-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-sentabrdagi “Ochiq Budget” axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5250-sonli qarori hamda shu bo‘yicha xalq deputatlari Nurobod tuman Kengashining 2021-yil 29-apreldagi “Mahalliy budget mablag‘lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta’minalash to‘g‘risida”gi 24-148-sonli qaroridagi namunaviy Nizomning 27-, 29-bandlari ijrosini ta’minalash maqsadida xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, oltmishinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tumanda 2022-yil 9 oyi davomida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar va bajarilgan ishlar yuzasidan tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri O.Abdusalomovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman ishchi guruhining 2022-yil 9 oy davomida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar va bajarilgan ishlar to‘g‘risidagi hisoboti 1-ilovaga muvofiq:

tashabbusli budgetlashtirish bo‘yicha ma’lumotlar 2-ilovaga muvofiq;

fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirilishi yuzasidan ma’lumot 3-ilovaga muvofiq;

fuqarolar tashabbusi jamg‘armasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g‘olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar yuzasidan ma’lumot 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi axborot xizmati (E.Pardayev), “Nurobod” gazetasi (N.Botirova)ga tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri (O.Abdusalomov) bilan birgalikda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarning moliyalashtirilishi hamda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida keng jamoatchilikni muntazam ravishda xabardor etib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Suyarov) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Ibragimov) zimmalariga yuklansin.

Sessiya raisi



B.Oblanov

Xalq deputatlari Nurobod tuman
Kengashining
2022 yil 21 oktabrdagi
VI-60-157-7-99-K/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman ishchi guruhining 2022-yil 9 oy davomida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar va bajarilgan ishlar to‘g‘risidagi hisoboti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli **qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi “Mahalliy budget mablag‘lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta’minalash to‘g‘risida”gi KQ-213-IV-sonli qarorlari** asosida **“Ochiqbudget”** axborot portalida “Tashabbusli budget” jarayonlari o‘tkazib kelinmoqda.

“Ochiqbudget” portalining tashkil etilishidan maqsadi bevosita fuqarolar tashabbus va talablarini inobatga olgan holda hududlardagi kamchiliklarni bartaraf etishdan iborat.

2022-yil 1 mavsumda g‘olib deb topilgan loyihamoqda bo‘yicha:

Fuqarolar tomonidan bildirilgan takliflarni amalga oshirish uchun tuman hokimligida “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” shaxsiy g‘azna hisobvaragi shakllantirildi. Ushbu jamg‘armaga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli qaroriga asosan 2022-yil 1-yanvar holatiga erkin qoldiq mablag‘larining 30 foizi 1 099,0 mln.so‘m, tuman budgetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foizi 3 777,7 mln.so‘m xalq deputatlari tuman Kengashining qarorlariga asosan o‘tkazilishi ta’minaldi.

Jamg‘armada 2022-yil boshida 554,0 mln.so‘m qoldiq mablag‘ mavjud bo‘lib, jamg‘armadan 1-mavsumda fuqarolar tomonidan bildirilgan takliflarni amalga oshirish uchun jami 5 430,7 mln. so‘m mablag‘lar yo‘naltirildi.

Joriy yil o‘tkazilgan 1-mavsum tashabbusli budget jarayonlarida fuqarolar tomonidan **220 ta** loyihamoqda ilgari surilib, **125 tasi** ishchi komissiya tomonidan saralab olindi hamda ushbu loyihamoqda **32 439 ta** (*jami aholi soniga nisbatan 21,2 foiz*) ovoz berildi.

2022-yil 1-mavsumda o‘tkazilgan tashabbusli budget jarayonlari yakunlariga ko‘ra amalga oshirish qiymati **5 429,0 mln.** so‘nni tashkil etgan **6 ta** loyihamoqda

(20421 ta ovoz to‘plagan holda) g‘olib deb topildi.

“Nurobod tumani Chortut MFY Uyrug‘ul qishlog‘i ichki yo‘lini ta’mirlash” taklifi 4794 ta ovoz bilan 1-o‘rinni;

“Nurobod tuman xalq ta’limiga qarashli 41-umumta’lim maktabining moddiy texnika bazasini boy etish” taklifi 4612 ta ovoz bilan 2-o‘rinni;

“Nurobod tuman Chortut mahallasi Uyrug‘ul qishlog‘i yuqori qismi (Skazka) bolalar oromgohi yo‘li ta’mirlash” taklifi 3806 ta ovoz bilan 3-o‘rinni;

“Tumanimizdagi umumta’lim maktablariga parta, stol stul, shkaf, laboratoriya jihozlarini xarid qilish” taklifi 2671 ta ovoz bilan 4-o‘rinni;

“Tuman tibbiyat birlashmasiga qarashli Markaziy shifoxonani ta’mirlash, zamonaviy tibbiy asbob va uskunalar bilan ta’minalash” taklifi 2304 ta ovoz bilan 5-o‘rinni;

“Nurobod tumani Qo‘rg‘oncha mahalla fuqarolar yig‘inida joylashgan Sahro uchastkasida ichki yo‘llar ta’mirlash” taklifi 2234 ta ovoz bilan 6-o‘rinni qayd etdi.

G‘olib deb topilgan loyihalarni amalga oshirish yuzasidan buyurtmachi tashkilotlarni aniqlash bo‘yicha manzilli ro‘yxat shakllantirilib, xalq dyeputatlari tuman Kengashining 2022-yil 14-apreldagi VI-48-64-7-99-K/22-sonli qarori bilan tasdiqlandi. Har bir loyiha uchun buyurtmachi tashkilotlarga “**401722**” mablag‘lar manbasi bilan alohida hisob varaqlar ochgan holda mablag‘lar o‘tkazib berildi va axborot portalida “g‘olib” deb topilmagan boshqa loyihalar moliyalashtirilishiga yo‘l qo‘yilmadi.

Xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 14-apreldagi VI-48-64-7-99-K/22-sonli qarori bilan “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasida shakllangan mablag‘lar hisobidan:

1-o‘rinni “Nurobod tumani Chortut MFY Uyrug‘ul qishlog‘i ichki yo‘lini ta’mirlash” taklifini amalga oshirish uchun 1 080,0 mln.so‘m;

2-o‘rinni “Nurobod tuman xalq ta’limiga qarashli 41-umumta’lim maktabining moddiy texnika bazasini boyitish” taklifini amalga oshirish uchun 600,0 mln.so‘m;

3-o‘rinni “Nurobod tuman Chortut mahallasi Uyrug‘ul kishlog‘i yuqori qismi (Skazka) bolalar oromgohi yo‘li ta’mirlash” taklifini amalga oshirish uchun 1 080,0 mln.so‘m;

4-o‘rinni “Tumanimizdagi umumta’lim maktablariga parta, stol stul, shkaf,

laboratoriya jihozlarini xarid qilish” taklifini amalga oshirish uchun 869,0 mln.so‘m;

5-o‘rinni “Tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli Markaziy shifoxonani ta’mirlash, zamonaviy tibbiy asbob va uskunalar bilan ta’minlash” taklifini amalga oshirish uchun 1 000,0 mln.so‘m;

6-o‘rinni “Nurobod tumani Qo‘rg‘oncha mahalla fuqarolar yig‘inida joylashgan Sahro uchastkasida ichki yo‘llar ta’mirlash” taklifini amalga oshirish uchun 800,0 mln.so‘m mablag‘lar ajratildi, jami bo‘lib 5 429,0 mln.so‘m mablag‘lar ajratildi.

Bugungi kunda ushbu g‘olib deb topilgan takliflarni amalga oshirish “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshirilmoqda.

1-o‘rinni egallagan “Nurobod tumani Chortut MFY Uyrug‘ul qishlog‘i ichki yo‘lini ta’mirlash” taklifini amalga oshirish uchun tuman obodonlashtirish boshqarmasiga **1080,0 mln.** so‘m ajratilgan bo‘lib, taklifning loyiha-smeta hujjatlari shakllantirilib, O‘zbekiston Respublikasi davlat xaridlari axborot portali orqali o‘tkazilgan auksionda e’lon berilib “UP Bog‘ishamol yo‘llardan muntazam foydalanish” korxonasi bilan **1035,3 mln.** so‘mlik ichki yo‘lini joriy ta’mirlash uchun shartnomaga tuzilgan bugungi kunda ishlar 95 foizga bajarilgan.

2-o‘rinni egallagan “Nurobod tuman xalq ta’limiga qarashli 41-umumta’lim maktabining moddiy texnika bazasini boy etish” taklifini amalga oshirish uchun tuman xalq ta’limiga **600,0 mln.** so‘m ajratilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi davlat xaridlari axborot portali orqali e’lon kiritilib 28 turdag‘i qiymati **568 mln. 239 ming** so‘mlik shartnomaga tuzilib pudratchi tovarlar yetkazib berilgan.

3-o‘rinni egallagan “Nurobod tumani Chortut mahallasi Uyrug‘ul kishlog‘i yuqori qismi (Skazka) bolalar oromgohi yo‘li ta’mirlash” taklifini amalga oshirish uchun tuman obodonlashtirish boshqarmasiga **1080,0 mln.** so‘m ajratilgan bo‘lib, taklifning loyiha-smeta hujjatlari shakllantirilib O‘zbekiston Respublikasi davlat xaridlari axborot portali orqali o‘tkazilgan auksionda e’lon berilib “Nurobod TYFUK” korxonasi bilan **1060,0 mln.** so‘mlik ichki yo‘lini joriy ta’mirlash uchun shartnomaga tuzilgan bugungi kunda ishlar 100 foizga ishlar bajarilib foydalanishga topshirilgan.

4-o‘rinni egallagan “Tumanimizdagi umumta’lim maktablariga parta, stol stul, shkaf, laboratoriya jihozlarini xarid qilish” taklifini amalga oshirish uchun tuman xalq ta’limiga **869,0 mln.** so‘m ajratilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi davlat xaridlari axborot portali orqali e’lon kiritilib 10 turdag‘i qiymati **829 mln.**

710 ming so‘mlik shartnoma tuzilib pudratchi tomonidan tovarlar yetkazib berilgan.

5-o‘rinni “Tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli Markaziy shifoxonani ta’mirlash, zamonaviy tibbiy asbob va uskunalar bilan ta’minlash” taklifini amalga oshirish uchun tuman tibbiyot birlashmasiga **1,0 mld.** so‘m ajratilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi davlat xaridlari axborot portali orqali e’lon kiritilib 11 turdagи qiymati **466 mln. 841 ming** so‘mlik shartnoma tuzilib pudratchi tomonidan yetkazib berilgan. Bundan tashqari tuman markaziy poliklinkani joriy ta’mirlash uchun etender.uzex.uz portaliga elon kiritib “TEMURMALIK STROY” MCHJ bilan **380,0 mln** so‘mlik shartnoma tuzilgan bo‘lib bugungi kunda ishlar 100 foizga bajarilib foydalanishga topshirilgan.

6-o‘rinni egallagan “Nurobod tumani Qo‘rg‘oncha mahalla fuqarolar yig‘inida joylashgan Sahro uchastkasida ichki yo‘llar ta’mirlash” taklifini amalga oshirish uchun tuman obodonlashtirish boshqarmasiga **800,0 mln** so‘m ajratilgan bo‘lib, taklifning loyiha-smeta hujjatlari shakllantirilib O‘zbekiston Respublikasi davlat xaridlari axborot portali orqali o‘tkazilgan auksionda e’lon berilib “STQIDIL SERVIS” MCHJ korxonasi bilan **783,0 mln** so‘mlik ichki yo‘lini joriy ta’mirlash uchun shartnoma tuzilgan bugungi kunda ta’mirlash ishlari 100 foizga bajarilib foydalanishga topshirilgan.

2022-yil 2-mavsumda g‘olib deb topilgan loyihalar bo‘yicha:

Joriy yil o‘tkazilgan 2-mavsum tashabbusli budget jarayonlarida fuqarolar tomonidan **269 ta** loyihalar ilgari surilib, **126 tasi** ishchi komissiya tomonidan saralab olindi hamda ushbu loyihalarga **83 597ta** (*jami aholi soniga nisbatan 54,6foiz*) ovoz berildi.

2022-yil uchun tuman budgeti parametrida ko‘zda tutilgan 5 foiz mablag‘lar doirasida **3778,6 mln.** so‘m hamda qo‘srimcha mablag‘larning kamida 30 foiz qismi hisobidan **1 336,4 mln.** so‘m jami **5 115,0 mln.** so‘m mablag‘lar joriy yilning 2-mavsum tashabbusli byudjet jarayoni uchun yo‘naltirildi.

Jamg‘armaga yo‘naltirilgan **5 115,0 mln.** so‘m mablag‘lar doirasida 2-mavsumda o‘tkazilgan tashabbusli budget jarayonlari yakunlariga ko‘ra amalga oshirish qiymati **4 800,0 mln.** so‘mni tashkil etgan **4 ta** loyihalar (54503 ta ovoz to‘plagan holda) g‘olib deb topildi.

“Arabota” MFY Tim qishlog‘iga kirishdan Bunyodkor mahallasigacha

bo‘lgan 5 km ichki yo‘lini joriy ta’mirlash” taklifi 15115 ta ovoz bilan 1-o‘rinni;

“Sazag‘on” MFY kirish qismidagi katta yo‘ldan Qushchinor Oromgohiga borishdagi 4 N 513 D yo‘lini joriy ta’mirlash” taklifi 14727 ta ovoz bilan 2-o‘rinni;

“Tegirmonboshi” MFY Haprin guzaridagi ichki yo‘llarni (asosan 44-umumta’lim mактабидан boshlab O‘rtabuloqchagacha bo‘lgan tuproq yo‘lni) asfaltlashtirish va tungi yoritish chiroqlarini o‘rnatish” taklifi 12595 ta ovoz bilan 3-o‘rinni;

“Chortut” MFY Uyrug‘ul qishlog‘i Toshtepa ko‘chasining 2 km. qismini asfalt qilish” taklifi 12066 ta ovoz bilan 4-o‘rinni egalladi.

G‘olib deb topilgan loyihalarni amalga oshirish yuzasidan buyurtmachi tashkilotlarni aniqlash bo‘yicha manzilli ro‘yxat shakllantirilib, xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 30-sentabrdagi VI-59-143-7-99-K/22-sonli qarori bilan tasdiqlandi. Har bir loyiha uchun buyurtmachi tashkilotlarga “401722” mablag‘lar manbasi bilan alohida hisob varaqlar ochgan holda mablag‘lar o‘tkazib berildi va axborot portalida “g‘olib” deb topilmagan boshqa loyihalar moliyalashtirilishiga yo‘l qo‘yilmadi.

Ushbu jarayonlarning barcha bosqichlari jamoatchilik hamda loyiha tashabbuskorlari ishtirokida o‘tkazilishini ta’minalash hamda loyihada ko‘zda tutilgan tadbirlarni sifatli tarzda amalga oshirilishi (tovar yoki xizmatlarni xarid qilinishi) hamda bajarilgan ishlarni loyiha tashabbuskorlari ishtirokida qabul qilib olinishini ta’minalash bo‘yicha tizimli nazorat o‘rnatalgan.

Shuningdek, “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da “Tashabbusli budget” loyihasiga alohida e’tibor qaratilganligini inobatga olib, ushbu jarayonlarni shaffof tarzda o‘tkazilishini, g‘olib deb topilgan loyihalarni qisqa muddatlarda hamda sifatli amalga oshirilishini ta’minalash bo‘yicha tizimli choralar ko‘rilmoxda.

Tashabbusli budgetlashtirish jarayonini amalga oshirish mexanizmi va uning mohiyatini aholi o‘rtasida tizimli ravishda keng yoritib borilishini ta’minalash maqsadida tuman hokimligi tomonidan tuman hokimligining rasmiy veb-saytida o‘ndan ortiq maqola va video roliklar joylashtirildi hamda “Nurobod” gazetasiga 4 marotaba maqola chop etilib g‘olib takliflar yoritilishi ta’minalandi.

Xalq deputatlari Nurobod tuman
Kengashining
2022 yil 21 oktabrdagi
VI-60-157-7-99-K/22-son qaroriga
2-ilova

Nurobod tumani tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo'yicha

MA'LUMOT

2022-yil 1-oktabr holatiga
1-jadval

T/R	Ko'rsatkich nomi	Summa (ming so'm)
1	Yil boshiga qoldiq	554 000,0
2	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga o'tkazilgan mablag'lar*	10 545 695,0
3	Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar**	10 229 000,0
3.1	Tadbirlarni amalga oshirayotgan pudratchi tashkilotlarga bajarilgan ishlari uchun to'langan mablag'lar	5 060 159,4
3.2	Tadbirlarni moliyalashtirishga ajratilgan, biroq pudratchi tashkilotlarga to'lab berilmagan qoldiq mablag'lar	368 840,6
4	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidagi qoldiq mablag'lar	316 695,0

2-jadval

T/R	Bajarilgan tadbirlar nomi	Moliyalash tirilgan takliflar soni	Ko'rsatkichlar		
			o'chov birligi	miqdori	Sarflangan mablag'lar (ming.so'm)
1	Hududiy ichki yo'llar	3	Umumiy uzunligi (km)	6,315	2 960 000,0
2	Umumta'lim maktabalarini ta'mirlash va jihozlash	2	soni	2	1 469 000,0
3	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
4	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	1	soni	1	1 000 000,0
5	Boshqa ijtimoiy muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
6	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash		Umumiy uzunligi (km)		
7	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish		Chiroqlar soni		
8	Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish		Tadbirlar soni		
9	Boshqa tadbirlar		soni		
Jami		6	X	X	5 429 000,0

Izoh: * Ushbu qatorda mazkur ma'lumotning [3-ilovasidagi](#) Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga haqiqatda o'tkazilgan mablag'lar ustunining Jami ajratiladigan mablag'lar qatoridagi mablag'lar aks ettiriladi.

** Ushbu qatorda mazkur ma'lumotning [4-ilovasidagi](#) ajratilgan mablag'lar ustunining jami qatoridagi mablag'lar aksettiriladi.

Xalq deputatlari Nurobod tuman Kengashining
 2022 yil 21 oktabrdagi
 VI-60-157-7-99-K/22-son qaroriga
 3-ilova

Nurobod tumani “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan mablag‘larini shakllantirilishi yuzasidan
MA’LUMOT

2022-yil 1-oktabr holatiga

T/R	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” mablag‘larini shakllantirish manbalari	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirilishi lozim bo‘lgan mablag‘lar (ming so‘m)				“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga haqiqatda o‘tkazilgan mablag‘lar	Farqi	Izoh
		I chorak	II chorak	III chorak	IV chorak			
1	Tuman budgetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foiz qismi miqdorida ajratiladigan mablag‘lar	3 777 700,0	3 778 595,0			7 556 295,0	0,0	
2	O‘zbekiston Respublikasi Respublika budgetidan ajratilgan mablag‘lar (PQ-5250)						0,0	
3	Tuman budgetining qo‘sishma manbalarining 30 foizi miqdorida ajratiladigan mablag‘lar	2 416 400,0	573 000,0	0,0		2 989 400,0	0,0	
3.1	Shu jumladan	Erkin qoldiq mablag‘lari	1 099 000,0			1 099 000,0	0,0	
3.2		Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo‘yicha aniqlanadigan prognozdan oshiri bajarilgan qismi	763 400,0	573 000,0	0,0	1 336 400,0	0,0	
3.3		Yil boshiga qoldiq	554 000,0			554 000,0	0,0	
4	Jami ajratiladigan mablag‘lar	6 194 100,0	4 351 595,0	0,0	0,0	10 545 695,0	0,0	X

Xalq deputatlari Nurobod tuman Kengashining
2022 yil 21 oktabrdagi
VI-60-157-7-99-K/22-son qaroriga
4-ilova

Nurobod tumani “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g‘olib deb topilgan) tadbirlarni
moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar yuzasidan

MA’LUMOT

2022-yil 1-oktabr

T/R	Tadbirningxos raqami (ID)	Jami to‘plangan ovozlar	Shundan		Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Tadbirning moliyalashtirilishi (ming so‘m)					
			Onlayn ovozlar	SMS orqali		Tadbirni moliyalashtirish uchun ochilgan hisobvaraq	Tadbirning fuqaro tomonidan kiritilgan dastlabki qiymati	Tadbirni amalga oshirish qiymati*	Ajratilgan mablag‘lar	Bajarilgan ishlar uchun to‘lab berilgan mablag‘lar	Qoldiq mablag‘lar
1	0970400091	4794	9	4785	Nurobod tumani Chortut MFY Uyrug‘ul qishlog‘i ichki yo‘lini ta’mirlash	401722860182357045204110001	1080,0	1080,0	1080,0	21,2	1058,8
2	0970400104	4612	54	4558	41-umumta’lim maktabining moddiy texnika bazasini boyitish va jihozlash	401722860182357092100075081	800,0	600,0	600,0	437,4	162,6
3	0970400137	3806	7	3799	Chortut MFY Uyrug‘ul qishlog‘i yuqori qismi bolalar oromgohi yo‘lini ta’mirlash	401722860182357045204110002	1080,0	1080,0	1080,0	172,5	907,5
4	0970400094	2671	24	2647	Umumta’lim maktablariga parta, stol stul, shkaf, laboratoriya jihozlarini xarid qilish uchun.	401722860182357092100075082	869,0	869,0	869,0	259,2	609,8

5	0970400097	2304	3	2301	Nurobod tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli Markaziy shifoxonani ta'mirlash, tibbiy asbob va uskunalar bilan ta'mirlash uchun	401722860182357073101054001	1000,0	1000,0	1000,0	871,3	128,7
6	0970400040	2234	24	2210	Nurobod tumani Qo'rg'oncha mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan Sahro uchastkasida ichki yo'llar ta'mirlash.	401722860182357045204110003	800,0	800,0	800,0	721,8	78,2
7	0970600034	15115	0	15115	Tim kishlog'iga kirishdan Bunyodkor mahallasigacha bo'lgan 5 km yo'lini ta'mirlash	401722860182357045204110004	1200,0	1200,0	1200,0	0	0
8	970600004	14727	0	14727	Sazag'on MFYga kirish qismidagi ichki yo'lini kapital ta'mirlash	401722860182357045204110005	1200,0	1200,0	1200,0	0	0
9	970600081	12595	0	12595	"Tegirmonboshi" mahallasi Haprin guzaridagi ichki yo'llarni ta'mirlash.	401722860182357045204110006	1200,0	1200,0	1200,0	0	0
10	970600259	12066	0	12066	Nurobod tuman Chortut mahallasi Uyrug'ul qishlog'ining Toshtepa ko'chasining 2 km. qismini asfalt qilish	401722860182357045204110007	1200,0	1200,0	1200,0	0	0
Jami		74924	121	74803	X	X	10429,0	10429,0	10429,0	5060,0	5168,8

Izoh: * Tadbirni amalga oshirish qiymati ustunida loyiha-smeta hujjatlariga asosan pudratchi tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomada tadbirni amalga oshirish uchun nazarda tutilgan qiymat aks ettiriladi.